

QASHQADARYO DARYOSIDA JOYLASHGAN QARSHI GIDROUZELINING TASNIFI

Assistant. A.E.Azimov¹,
talaba. F.A.Nasimova¹.

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va
agrotexnologiyalar instituti.¹

Annotatsiya: Qarshi gidrouzeli texnik jihatdan mukammal bo‘lgan sug‘orish tizimidir. Undagi barcha suv taqsimlovchi va suv o‘tkazuvchi kanallar temir-beton inshootlar va zatvorlar bilan jihozlangan.

Kalit so‘zlar: Qarshi gidrouzeli, daryo, havza, maydon, dovon, oqim, plato, vodiy, irmog‘, ariq, kanal, sersuv, irmoq, chuqur, oqadigan tipik.

Qarshi gidrouzeli Qashqadaryo o‘zanida joylashgan. Daryo havzasining umumiy maydoni 12 ming km² ni tashkil etadi. Daryo Tojikistonning Sug‘d viloyatidagi Hisor tizmasining g‘arbiy tarmog‘i bo‘lgan Obixunda tog‘larining shimoliy yon bag‘ridan, Tovtosh dovonidan 1,5 km shimoli-sharqda, 2960 m balandlikdan boshlanadi. Daryo o‘ng irmog‘i O‘rtabuloqning (Forob qishlog‘i yonida) quyilishigacha Shinchasoy deb ataladi.

Yuqori oqimida baland plato bo‘ylab chuqur vodiyya oqadi. Daryo vodisining bosh qismi ko‘p joylarda tor. Vodiy yon bag‘irlari ko‘pincha tik, balandligi 50-120 metrdan kam emas. Yarg‘ak irmog‘i qo‘shilgandan so‘ng vodiy bir oz (100-200 metr) kengayadi. Shu yerdan daryoda qayir paydo bo‘ladi (eni 100 metr, Dug‘oba qishlog‘i yaqinida).

Hazratibashir qishlog‘idan boshlab daryo suvi ariq va kanallarga olinadi.

“Qarshi” gidrouzeli (keyingi jumlalarda gidrouzel deb yuritiladi) 1960-yilda qurilishi boshlanib ,1965-yil foydalanishga topshirilgan .Ushbu gidrouzelning suv o‘tkazish qobiliyati 515m³/s ni tashkil qiladi.

Qarshi gidrouzeli texnik jihatdan mukammal bo‘lgan sug‘orish tizimidir. Undagi barcha suv taqsimlovchi va suv o‘tkazuvchi kanallar temir-beton inshootlar va zatvorlar bilan jihozlangan.

Qashqadaryoga sersuv bir qancha irmoqlar: Jinnidaryo, Chiroqchidan 18 km yuqorida Oqsuv, Tanxozdaryo, G‘uzordaryolar kelib quyiladi. Bu irmoqlar yuqori oqimida chuqur va tor vodiyya oqadigan tipik tog‘ daryolari hisoblanadi.

Qashqadaryoning o‘ng sohil tomonidan uncha baland bo‘lмаган Qoratepa tog‘ining janubiy yon bag‘ridan 20 ga yaqin soy (Sho‘robsoy, Makridsoy, Oyoqchisoy, Qalqamasoy va boshqalar) oqib tushadi.

Tog‘likdan tekislikka chiqqach, daryo vodiysi kengayadi. Shu yerdan daryo suvi butunlay sug‘orishga olinadi. Qarshi cho‘liga yetganda daryo tugaydi.

Qarshi gidrouzeli haqida umumiy ma’lumotlar

- Qarshi gidrouzelini qurilgan yil – **1965 yil**
- Suv o‘tkazish qobiliyati – **515 m³/sek**
- Galerianing suv o‘tkazish qobiliyati – **60 m³/sek**

O‘ng qirg‘oq kanali

- O‘ng qirg‘oq kanali qurilgan yili – **1965 yil**
- O‘ng qirg‘oq kanali suv o‘tkazish qobiliyati - **30 m³/sek**
- Uzunligi - **17,9 km**
- O‘ng qirg‘oq kanali - **1123 hektar**

Qarshi tarmoq kanali

- Qarshi tarmoq kanali suv o‘tkazish qobiliyati – **7 m³/sek**
- Qarshi tarmoq kanali qurilgan yil – 1966 yil
- Uzunligi – 8.6 km
- Qarshi tarmoq kanali – **1974 hektar**

Pistali kanali

- Pistali kanali qurilgan yili – **1974 yil**
- Uzunligi – **36.5 km**
- Pistali kanali suv o‘tkazish qobiliyati – **20 m³/sek**
- Pistali kanali – **17938 hektar**

Jami sug‘oriladigan maydon: **21035 hektar**

2024-yil loyqadan tozalandi - **14.76 ming.m³**



Umumiy ko‘rsatkichlari:

Kanalning ishga tushurilgan yili - **1978 yil.**

- Umumiy uzunligi - **31,0 km.**
Loyihaviy suv o'tkazish qobiliyati - **45,0 m³/s.**
Mavjud gidrotexnik inshootlar - **7 dona.**
Kanalning suv manbaasi - “**Qarshi**” magistral kanali.
Xizmat qiladigan maydoni - **32000** hektar.

Kuzgi-qishgi tadbirlar rejada

- Kuzgi-qishki tadbirda tozalash rejasi – **4 km**
- Bajariladigan ish miqdori rejada – **16.8 ming.m³**
- Gidrotexnik inshootlarni ta'mirlash reja – 4 dona
- Gidroposlarni ta'mirlash reja – 4 dona
- Jami sarflanadigan mablag‘ rejada – **66.3 mln.so‘m**

Bugungi kungacha (08.02.2024 yil)

- Kuzgi-qishki tadbirlar doirasida tazalandi – **3,65 km**
- Bajarilgan ish miqdori amalda – **18.1 ming.m³**
- Gidrotexnik inshootlarni ta'mirlash amalda – 3 dona
- Gidroposlarni ta'mirlash amalda – 4 dona
- Jami sarflangan mablag‘ amalda – **32.76 mln.so‘m**

Jalb etilgan mexanizmlar

- Ekskavotor – 2 dona

Qarshi gidrouzelidan suv oluvxhi kanallar.

O`ng qirg`oq kanali. O`ng qirg`oq kanali 1965-yili qurilib foydalanishga topshirilgan. Kanalning uzunligi 17.9kmni tashkil qiladi va uning suv o'tkazish qobiliyati 30m³/s.Kanalning sug`oradigan maydoni 1123 hektarni tashkil qiladi.

Qarshi tarmoq kanali. Qarshi tarmoq kanali 1966-yil qurilgan va uning suv o'tkazish qobiliyati 7m³/s.Uzunligi 8.6km ni tashkil etadi. Kanal 1974hektar maydonni sug`ora olish qobiliyatiga ega.

Pistali kanali. Pistali kanali 1974-yil qurilib foydalanishga topshirilgan.Uzunligi 36.5kmni tashkil etadi. Pistali kanalning suv o'tkazish qobiliyati 20m³/s.17938hektar maydonni sug`ora olish qibiliyatiga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Азизов С. Каршинский магистральный канал. -Гидротехника и мелиорация, 1970, № 7.с.21-26.
2. Бабенко Ю.М., Коваленко Ю.В. Насосы. Учеб.пособие. Ростов н/Д. (Ростов н/Д Гос. Акад.с-х. машиностр.): 2001.-104 с.
3. Вишневский К.П. Переходные процессы в напорных системах водоподачи.- М.: Агропромиздат, 1986.-136 с.

4. Водозаборные сооружения для водоснабжения из поверхностных источников /Образовский А.С., Ереснов Н.В., Ереснов В.Н. и др.- М.:Стройиздат, 1976.-398 с.
5. Гловацкий О.Я., Очилов Р.А. Совершенствование эксплуатации крупных мелиоративных насосных станций. В.3-х ч.-М.: Обзорная информация, ЦБНТИ, 1990.-ч II.-90 с.
6. Gapparov F., Sarmonov N. COMPUTATIONAL ANALYSIS OF THE DEPENDENCE OF THE AMOUNT OF EVAPORATION IN THE RESERVOIRS OF TALIMARJON AND HISORAK ON THE DEPTH OF WATER IN THE RESERVOIR //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 6. – С. 141-150.
7. Abdirazzakov AI, Sherboev ZX, Sarmonov NO YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASHDA MELIORATIV QUDUQLARNING AHAMIYATI //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – Yo‘q. 4. – S. 2021-2025 yillar.
8. Gapparov, F. va Sarmonov, N. (2022). TALLIMARGON Suv OMBORI YUZASIDAN BOLADIGAN BUGLANISHLAR TAGLILI VA INSHOOT ISHONCHLI ISHLASHINING ASOSIY OMILLARI. *Innovatsion texnologiyalar*, 1 (04), 45-47.
9. Gapparov, F. va Sarmonov, N. (2022). TALLIMARGON Suv OMBORI YUZASIDAN BOLADIGAN BUGLANISHLAR TAGLILI VA INSHOOT ISHONCHLI ISHLASHINING ASOSIY OMILLARI. *Innovatsion texnologiyalar*, 1 (04), 45-47.
10. Sherboev Z. X. va boshqalar KANALLARNI ISHONCHLILI ISHLASH SHARTLARI//PEDAGOGIKA FANLARI VA O'QITISH METODLARI. – 2023. – Т. 3. – Yo‘q. 28. – 77-82-betlar.